

FINLANDIYA TA`LIMIDA MATEMATIKA FANINI O`QITISHNI TAHLIL QILISH

Norboyeva Umida Usan qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti.

Samarqand shahar Spitamen shox ko'chasi 166.

umidanorboyeva373@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada butun jahonda tan olingan Finlandiya ta'lim tizimida matematika fani hamda matematika o'qitish metodikasining samarali jihatlarini o'zlashtirgan holda, dars jarayonida qanday metod texnologiyalardan foydalanish yuqori natija berishi to'g'risida keltirilgan.

Tayanch so'zlar. Finlandiya ta'lim tizimi, o'quv metodlari, juft va toq metodi.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunga kelib ,uzliksiz ta'lim tizimida ,ta'lim sifatini yuqori natijaga olib chiqishda ilg'or xorijiy texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda o'rta ta'lim maktablarida matematikanino'qitishni takomillashtirish maktab o'quvchilariga tushuntirishda turli metodlardan foydalanish va hayotiy tadbirlarini ko'rsatib berish har bir o'qituvchining eng oliy maqsadi hisoblanadi. Bosh vazir o'rinbosari B.A.Musayev va Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi hamda tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-yanvarga qadar Finlandiyaning talim sohasidagi tajribasini, darslik va o'quv dasturlarini pedagog kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish tizimini, xorijga xizmat safarini tashkil qilgan holda o'rganib chiqilsin. Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'lim vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda Finlandiyaning ta'lim sohasida ijobiy tajribasini O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga hamda o'quv dasturga joriy qilish bo'yicha barcha chora tadbirlarni amalga oshirsin. Ko'rsatilgan bandlarga muvofiq ta'lim tizimini o'rganish va kadrlar malakasini oshirish, hamda ularni qayta tayyorlash tizimini o'rganish, Finlandiya ta'limidagi bir qancha yutuqlarni tahlil qilib, milliy o'qitish tizimimizga moslagan holda qayta takomillashtirish kabi masalalar ko'rib chiqilgan [1].

Barchamizga ma`lumki bugungi kunga kelib, Finlandiya ta`lim tizimi dunyodagi eng yaxshi ti`zim ekanligi haqidagi fikrlar ko`plab muhokamalarga sabab bo`lmoqda. Hozirgi kunga kelib Finlandiya maktablarida matematika fanini o`qitish yuqori ko`rsatkichda bo`lib, oddiy misol tariqasida Finlandiyada fandan yuqori va past o`zlashtiruvchi o`quvchilar bir biriga yordamchi yoki bir biriga ustoz, aniqroq aytadigan bo`lsak Juft yoki toq metodidir. Juft metodida bitta yaxshi o`zlashtiruvchi va yaxshi o`zlashtira olmaydigan dars o`tiladi. Yaxshi o`zlashtiruvchi o`quvchi o`zlashtirishi sust bo`lgan o`quvchiga sodda atamalar bilan uning o`zlashtirishiga yordam beradi. Ikkinchi metod toq metodida esa o`zlashtirishi qiyin bo`lgan o`quvchi bilan fan o`qituvchisi undan keyin maktabdagi to`garak o`qituvchisi va undan ham keyin o`quvchining ota -onasi shug`ullanadi. Oxir oqibat o`quvchi sinfdagi yaxshi o`zlashtiruvchi o`quvchilarga yetib oladi. Bu ikki metod yuqori natija berganligi tufayli o`qituvchilari tomonidan a`lo darajada o`zlashtirilib kelinmoqda. Bizning asosiy maqsadimiz bunday samarali metodlarni o`zimizning ta`lim tizimimizga joriy etib, o`quvchilarning matematika faniga qiziqishlarini yanada oshirishdan iborat [2].

Finlandiya maktablarida deyarli raqobat yo`q. Ya`ni o`quvchilarga baho qo`yishda Finlandiya baho tizimi mavjud emas. So`ngi yillarda Finlandiya Xalqaro PISA reytingida matematika fanidan 5-o'rinni egallab kelmoqda. Finlandiya maktablarida dars soatlar kam bo'lishiga qaramasdan o'zlashtirish yuqori darajada. Finlandiya maktablariga bolalarni 7 yoshidan qabul qilishadi. Ularni fikricha bu eng to'g'ri qaror. Finlandiya maktablarida ta'lim quyi va yuqori bosqichlarda olib boriladi. Quyi bosqich (boshlang'ich ta'lim (7-12 yoshlar) 1-sinfdan boshlab 6-sinfgacha bo'lgan sinflarni hamda yuqori bosqich -yuqori sinf o'quvchilari 7-9 sinf (13-16 yoshlar) o'quvchilarini o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinflarida umumiy matematika fanining uchdan ikki qismi o'qitiladi. Asosiy darsni boshlang'ich sinf o'qituvchisi amalga oshiradi. Dars berish jarayonida Finlandiya boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining tajribalaridan va shaxsiy metodlaridan kelib chiqib asosiy darsni beradi. Finlandiya o'qituvchilarning asosiy maqsadi o'quvchini qiziqtirish va natijaga erishish hisoblanadi.[3].

Finlandiyada o'quv materiallari matematik ta'limga qiziqadigan va hozirda maktablarda ishlaydigan biz kabi oddiy o'qituvchilar tomonidan tayyorlanadi. Shuning uchun ular maktablardagi sharoitlarni juda yaxshi bilishadi. Hozirda ikki xil turdagi parallel darsliklardan foydalaniladi. Bu darsliklar bir-biridan biroz farq

qilsa ham, barcha o'quv qo'llanmalari umuman o'xshashdir. Barcha darsliklarda muammolar va statistik ma'lumotlarni echish uchun turli xil materiallar, guruh ishlari va loyihalar uchun g'oyalar mavjud. Ular, shuningdek, asosiy mashqlar to'plamini hamda barcha talabalar uchun qiyinroq topshiriqlarni taqdim etishadi. Bundan tashqari, matematikaga qiziqqan o'quvchilar uchun qiyin topshiriqlar to'plami mavjud. O'qituvchilar o'z o'quvchilari uchun darsliklar va boshqa materiallarni tanlash bilan bir

qatorda o'qitish metodikasi uchun mas'uldirlar. Shunisi e'tiborga loyiqli, o'quv materiallarining sifati bevosita o'qitish sifatiga teng kelmaydi, chunki o'qituvchi barcha turdagi materiallardan tegishli yoki boshqa usulda foydalanishi mumkin. Agar xohlasalar, ular darsliksiz o'qitishni tanlashi mumkin, ammo bu alternativa kamdan kam qo'llaniladi [4].

Xulosa qilib aytganda, matematikani o'qitish bilan shug'ullanadigan Finlandiya o'qituvchilari maktab matematikasi ta'limini saqlash va yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi butun tayyorgarlikni sinfdan tashqarida amalga oshiradi, qiziqarli o'yinlar izlab topadi va shu jumladan yangicha metodlar kashf qiladi. Bu fin o'qituvchilarni muvaffaqiyatga erishishga asosiy sababchi bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/docs/-5085887>.
2. *P.Andrews, A.Ryve. K.Hemmi & J.Sayers.*(2014). PISA; TIMSS and Finnish mathematics teaching (TIMSS va fin matematikasini o'qitish): an enigma in search of an explanation// In Educ.Stud.Math DOI 10.1007/s10649-014-9545-3
3. *H.Krzywacki. L.Pehkonen and A.Laine.* Promoting mathematical thinking in Finish mathematics education// University of Helsinki.
4. <https://www.infoflnland.fl/en/living-in-flnland/education/the-flnnish-education-system>; Finlandiya o'rta ta'lim maktablarini matematika fani o'qituvchilari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari.